JIZZAX VILOYATI
XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
QARORI

2023 - yil 5 - iyun VI-58-100-3-44-K/23 Baxmal tumani hokimligi

Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining 2023-yil 22-fevraldagi VI-54-39-3-44-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori hamda Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023 yil 31 mart kungi 15-00660-sonli ekspert hulosasiga hamda 2023-yil 15-may kuni Baxmal tumani Barlos qishloq fuqarolar yig‘inida o‘tkazilgan 4- sonli Kengash yig‘ilish bayoniga asosan Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023 yil 31 mart kungi 15-00660-sonli ekspert hulosasi hamda 2023 yil 15 may kuni Baxmal tumani Barlos qishloq fuqarolar yig‘inida o‘tkazilgan 4-sonli Kengash yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining 2023-yil 22-fevraldagi “Tumandagi “Barlos” qishloq fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida”gi VI-54-39-3-44-K/23-sonli qarorining “Barlos qishloq fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari nomi va joylashishi to‘g‘risida”gi 1-ilovasida va “Barlos

qishloq fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yer maydoni” to‘g‘risidagi 2-ilovasidagi Yangi tashkil etilgan fuqarolar yig‘ini nomi “Muzbel” mahalla fuqarolar yig‘ini deb o‘qilsin.

3. “Baxmal hayoti” gazetasi tahririyati (T.Berdiyev)ga, mazkur qaror gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Egamberdiyev)ga hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi, tuman hokimi **M.Anarbayev**